

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI 2-KURS TALABASI  
MUBORAK ISROILOVANING

**“TA’LIM-TARBIYA VA AQLIY TARAQQIYOT”**

mavzusidagi

# REFERATI

Tekshirdi: Pedagogika kafedrası katta o‘qituvchi M.Eshonova

ANDIJON - 2013

## **MAVZU: TA'LIM-TARBIYA VA AQLIY TARAQQIYOT**

### **KIRISH**

1. Shaxsning aqliy kamoloti bosqichlari
2. Ta'lim-tarbiya va aqliy taraqqiyot – intellektual salohiyatli shaxsni shakllantirishning muhim mezonlari sifatida
3. Aqliy taraqqiyotda bilish faoliyati
4. Ilmiy dunyoqarashning rivojlanishi – ta'lim-tarbiya va aqliy taraqqiyotning muhim omili sifatida

### **UMUMIY XULOSALAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Jamiyatimiz taraqqiyotiga mos ta'lim-tarbiya sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar bo'lmoqda, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning yangi-yangi qirralarini o'rganish imkoniyatlari tug'ilmoqda. Bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni sinchiklab, mukammal o'rganish, zamonaviy ilm-fan, texnika-texnologiyalar borasidagi yutuqlarni o'rganish va tahlil qilish bo'lajak mutaxassislar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda mustahkam ilmiy asos bo'lmoqda.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaga bo'lgan zamonaviy talablar hamda ularning sifatini oshirish muammosiga yangicha yondashuv, uni muntazam ravishda takomillashtirishning innovatsion uslublarini ishlab chiqish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etishlardan iborat.

Shuning bilan birga pedagogik va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishda ham ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari salmog'ini kengaytirish hamda «ta'lim-amaliyot» integratsiyasining ta'lim tizimlaridagi samarasini ta'minlash lozim bo'ladi. Bu borada Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va jahon ta'limi andozalari talablariga mos keluvchi «Davlat ta'lim standartlari» da davr bilan hamnafas, ya'ni «Intellectual asr» ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan.

Ayniqsa, tayyorlash milliy dasturida ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlar salmog'ini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu sababli zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiyaviy ishlarning interaktiv usullaridan foydalana oladigan qilib hamda o'zidagi pedagogik faoliyat mahoratini va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish, rivojlantirish ustidagi faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila oladigan, shuningdek, ularni mustaqil ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyatiga loyiq qilib tayyorlash bugunning dolzarb muammosidir.

### 1. Shaxsning aqliy kamoloti bosqichlari

Xalqimiz azal-azaldan o'z farzandlarini har tomonlama yetuk, mukammal tarbiya topgan o'g'il-qizlar bo'lishini orzu qilgan va uni amalga oshirishda xalq pedagogikasidan keng foydalangan. Buyuk ota-bobolarimiz At-Termiziy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy She'roziy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida axloqiy tarbiya masalasini keng yoritganlar. Biz bugungi kunda buyuk siymolarimiz merosini avaylab-asrab, yoshlar tarbiyasida ulardan foydalanishga jiddiy yondashishimiz zarur.

Chunki, yoshlar xalqimiz kelajagi, shunday ekan axloqiy tarbiya masalasi asrlar davomida kishilik jamiyatining oliy maqsadi bo'lib keldi va bugungi kunda istiqloq tufayli mustaqillikka erishgan O'zbekistonda ham g'oyat dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Jumladan, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "... farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim". Buning uchun, avvalo, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratish zarur. Biz ham mazkur ishimiz orqali Prezidentimiz ta'kidlagan asosiy maqsadga erishishga harakat qilmoqdamiz.

Ma'lumki, davlatimiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng barcha sohalar kabi ma'naviy sohaga ham katta e'tibor berildi. Buni bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohatlarda, olimlarimiz ilmiy faoliyatlarida, o'qituvchi va o'quvchilarga yaratilayotgan imkoniyatlardan ham ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan, yurtboshimiz I.A.Karimovning bir qator asarlarida ham jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilanishi va rivojlanishining asosiy negizlari keng yoritib berilgan.

Xususan, I.A.Karimov o'z asarlarida quyidagi fikrni bildiradilar: «Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi». Zero, jamiyat taraqqiyoti uchun avvalo ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga asosiy e'tibor qaratilishi lozim va shuning bilan birga yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini oshirish darkor. Chunki, axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi.

Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Bular orqali, talabalarni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratilib, uning yordamida erkin mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak kadrlarni tayyorlashga mustahkam asos bo'ladi.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ularning ma'naviyatini yuksaltirishni, samarali amalga oshirish uchun, shaxs intellektual kamolotini quyidagi ketma-ketlikda ifodalashni lozim topdik: aqlli odam; ongli odam; fikrli kishi; ilmli-bilimli kishi; g'oyali inson; ma'rifatli va ma'naviyatli shaxs; madaniyatli va barkamol shaxs; olim; alloma; mutafakkir; donishmand va komil inson.

### **1. Aqlli odam.**

Ma'lumki, insonlar ikki nuqta orasidagi eng qisqa masofani to'g'ri chiziq orqali aniqlaydilar. Bu tushuncha kishilar faoliyatida biror bir maqsadga erishishga yaxshilik, to'g'rilik va to'g'ri yo'l bilan tez va oson borishlikka mos holatdir. Bunday holatni amalga oshirish uchun

esa kishilar ongli, aqlli, farosatli va albatta ilmli–bilimli bo’lmog’i lozim. Bu haqida payg’ambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v. Ilm haqida shunday deganlar:

«Ilm o’rganinglar: ilm zulmatda quyosh, vahshatda hamrox, yolg’izlikda yo’ldosh, begona yurtda sirdosh, og’ir damda rahbar, dushmanga qarshi quroldir».

Demak, ilmli kishi hayotning har qanday sir–sinoatlariga tayyor bo’ladi va ular hayotda kamroq surinadilar. Aslida ilm olishdan maqsad ham aqlni charxlashdir va charxlangan aql yordamida chin haqiqatni, hayotni hamda uning qonuniyatlarini bilishdan iboratdir. Bu bilan aqlli odam bilimli va ilmli bo’la oladi va hayotda to’g’ri, yanglishmay, yaxshi yashash mumkin, – degan xulosani ham hosil qilamiz.

«Aqlli odam o’rgangan bilimlari natijasida hayotda nima qilish kerakligini biladi. Dono esa nima qilmaslik kerakligini ham biladi. Aqlli odam shunday odamki, u qiyin vaziyatdan osongina beshikast chiqib ketadi, dono esa bu qiyin vaziyatga aslo tushmaydi».

Aqli raso odam ana shunday donolik va donishmandlikka intilib yashamog’i lozim. Oqillar ilmdan, hikmatli, ibratli so’zlardan fikr, ibrat olsalar, axmoqlar esa so’zdan emas, kulfatdan va baxtsizlikdan saboq oladilar. Peshonalari devorga taq etib urilgandagina ko’zlari biroz ochiladi. Uning saboqlari ana shu tariqa bo’ladi.

Demak, odamdagi aqllilik, uning donolik va donishmandlik fazilatlarini asoslaridan birini ham tashkil etish mumkin ekan, shuningdek, ular yetuklik darajasiga ham erishishi mumkin bo’lib, bunday odamlar o’zlarini ham tarbiyalab bora olar ekan.

Aql bordirki, o’zi ko’rinmaydi, ammo barcha narsa va hodisalarni ko’ra oladi, bir zumda dunyoni sayr qila oladi, shuningdek, samoviy jismlarning harakati holatlarini aniqlash hamda ularning o’zaro aloqadorligiga bo’lgan qonuniyatlarni kashf qilishda ham iste’dodini ishga soladi.

Demak, aqlli odam buyuk yaratishga, olamni obod qilishga, kishilarning mushkulini oson qilishga, jamiyat va davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo’shishga, odamlar o’rtasidagi insonparvarlikni yuksaltirishga xizmat qilib, o’zini ham inson kamolati bosqichlariga erishishda surinmay, to’qnashmay borishini ham ta’minlay oladi va ular bugungi yoshlarimiz tarbiyasida ibrat–namuna bo’la oladi. Chunki, aqlli odam o’rgangan bilimlariga asoslanib hayotda turmush tarzini belgilay oladi.

Bu borada dono odam shunga qo’shimcha qilib nima qilmaslik kerakligini ham biladi. Aqlli odam qiyin vaziyatdan osongina chiqib ketadi, dono odam esa bunday qiyin vaziyatga tushmaydi. Demak, aqlli odam donolik sari intilishi kerak ekan va ana shunday odamgina komillik va donishmandlikka intilib yashashi mumkin.

## **2. Ongli odam.**

Ong – borliqni va undagi narsa–hodisalarni aks ettirishning yuksak, faqat odamga xos

shakli. Ong ham aql, ham inson miyasi mahsuli. Insonning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati uning ongida yuz beradi. Siyosiy ong, ijtimoiy ong, individual ong va shu kabi ko'rinishdagi ong shakllari mavjud bo'lib, ularning asosini ongli odam tashkil etadi. Shu sababli ham insonning ongi juda ko'p narsa va hodisalarni bilish quvvatiga ega. Individual onglardan tashkil topadigan ijtimoiy ong umumxalq boyligiga aylanib boraveradi va shu asosda jamiyatimizda ma'naviyat, ma'rifat yuksalaveradi.

### **3. Fikrli odam.**

Fikr – biror narsa, kimsa haqidagi o'y, xayol. Fikrlash – biror xulosaga kelish uchun, narsa va hodisalarni taqqoslash, o'ylamoq, mulohaza qilmoq, razm solmoq. Fikrli odam – o'ylab, aql bilan ish tutadigan mulohazali kishi.

Fikrlash erkinligi – insonning intellektual va ma'naviy hayotining hamma yo'nalishlarini o'z ichiga oladi; insonning eng asosiy shaxsiy huquqlaridan biri bo'lib, avvalo shaxsning har qanday mafkuraviy taziqidan holi, erkin ekanligi, har kim o'zi uchun xohlagan ma'naviy qadriyatlar tizimini mustaqil tanlashni anglatadi; insonning mutloq huquqi bo'lib, O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 29–moddasiga ko'ra har kim fikrlash erkinligi huquqiga ega, fikr yuritish (fikrlash) va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

### **4. Ilmli – bilimli kishi.**

Ilm – insonning o'qish, o'rganish va shaxsiy hayotidagi tajribalar, kuzatishlar natijasida shakllangan bilim va malakalar majmui. Inson kamolatidagi ilm egallash qobiliyati, uning ulkan fazilatlaridan biri qisoblanadi. Chunki, inson bilim bilan shon-sharafga erishadi – shuhrat qozonadi. Ilm – inson kamolatida ilm egallash asosiy fazilatlardan biri bo'lib qisoblanadi. Chunki, kishi u bilan o'zligini anglaydi, davlat, jamiyat, jamoa va oilasidagi o'rnini topadi, shuningdek shon–sharafga erishadi.

## **2. Ta'lim-tarbiya va aqliy taraqqiyot – intellektual salohiyatli shaxsni shakllantirishning muhim mezonlari sifatida**

O'zbekiston mustaqilligi tufayli mamlakatimiz hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Mustaqillik sharofati bilan qisqa davr mobaynida asrlarga tatigulik salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu, ayniqsa, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida namoyon bo'lmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, islohatlar mamlakatimiz iqtisodiy qudratining oshib borishi natijasida jamiyatning markaziy asosi hisoblangan xalq ta'limida ham tub islohatlar ro'y bermoqda, u pedagogik-texnologiyalar amaliyot uslublari bilan boyib, yangilanmoqda, moddiy jihatdan mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining ta'limni rivojlantirishga yoshlarga jahon andozalariga mos

bilim, ko'nikma va malakalar berish, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ko'rsatilayotgan doimiy g'amxo'rligi tufayli ta'lim-tarbiya ishlarining bugungi qiyofasi tubdan o'zgardi. Eng asosiysi, mamlakatimizda ta'limning milliy modeli yaratildi.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 60% iga yaqinini yoshlar tashkil etadi. Shunday ekan endi asosiy e'tibor kelajak ertalari, ya'ni yoshlarga qaratilishi ham tushunarli holdir. Mamlakatimizda yoshlar uchun barcha sharoitlar muhayyo etilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz.

2008 yilning muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan "Yoshlar yili" deb qabul qilinganligini fikrimizning isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Joriy yil mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqaro, xususan yoshlar uchun alohida ahamiyatga ega. Yoshlar yili vazifalari, maqsad-muddaosi bilan barchamizning hayotimizga, turmushimizga, qiziqishlarimizga, qilayotgan ishlarimizga daxldor. Negaki, biror soha yo'qki, yoshlar manfaatlaridan xoli bo'lsa.

Yoshlar yili mamlakatimiz barcha yigit-qizlari uchun ham, yoshlar masalalari bilan shug'ullanadigan barcha davlat va nodavlat tashkilotlari uchun ham o'z imkoniyatlarini namoyon etish, yangi tashabbuslar bilan chiqish, o'zining intellektual, ma'naviy va ijodiy qobiliyatlarini to'laroq ishga solish uchun keng va katta imkoniyatdir.

Endilikda yoshlarni, shunchaki yoshlarni emas, balki zamonaviy yoshlarni kamolga yetkazish davlatimiz va xalqimiz, xususan yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislarining oldida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi: "Zamonaviy yosh avlod kim va u o'zida qanday fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi lozim?" Biz bu savolga quyidagicha javob bermoqchimiz:

Zamonaviy yosh avlod-bu yuksak aql-zakovat sohibi, mustaqil fikrini erkin bildiradigan, salohiyatli, milliy istiqlol g'oyasining tub ma'no-mazmunini anglab yetgan va ularga sodiq bo'lgan, mustahkam milliy dunyoqarashli hamda sog'lom e'tiqodli, xalqi, mahallasi, uyi tinchligi uchun jonini fido etishgada tayyor turuvchi, o'z Vatani dovrug'ini jahon hamjamiyatiga olib chiqadigan haqiqiy bunyodkor, fidoiy shaxs.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: "... xalq ta'limini tubdan isloh qilish, mazkur dasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag' va imkoniyat talab qilmoqda. Lekin istiqbolimiz, istiqlolimiz ko'zi bilan qaraganda, ham iqtisod, ham siyosat, ham ma'naviyat nuqtai nazardan bu sarf-xarajatlarga nazar tashlasak, undan keladigan manfaat har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar" – degan so'zlarni ta'kidlagan edi.

Madomiki, davlat va jamiyat kelajagimiz vorislari bo'lgan zamonaviy yoshlar ta'lim-

tarbiyasiga hyech narsani ayamayotgan ekan, o'z umrini bunday ulug' va mas'uliyatli ishga bag'ishlagan har bir pedagog davlat va jamiyat tomonidan bildirilgan ishonchga munosib bo'lishi, pedagogik faoliyatida yuksak samaradorlikka erishish bilan javob berishi, XXI asr avlodini tarbiyalashda faol qatnashishi lozim.

Ta'limdagi islohatlar o'rta maxsus va oliy ta'lim bo'g'inlarida ham olib borildi: ko'pgina pedagogik institutlari universitetlarga, pedagogika bilim yurtlari kollejlarga aylantirildi. Bu islohatlarning asosiy maqsadi yoshlarga ta'lim-tarbiya berish saviyasini yanada yuqoriga ko'tarishga, ularni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashni yaxshilashga qaratilgandir. Shuningdek, maktab o'quvchilari qalbida Vatanga muhabbat, jamoatchilikka, kattalarga, otalar va o'qituvchilarga hurmat tuyg'usini singdirishga, o'z xulq atvori bilan yuksak mas'uliyatni his qilishga, o'z-o'zini boshqarishga da'vat etish ham lozimdir.

Bugungi kun yosh mutaxassislarining yangi avlodi oldiga yana ham dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Izchil va aniq maqsadga yo'naltirilgan islohatlar natijasida yoshlarning nafaqat eng yuksak talablarga javob bera oladigan umumiy ma'lumot olish, balki aniq mutaxassislikka ham ega bo'lish imkonini beruvchi uzluksiz ta'limning yaxlit tizimi yaratilgan. Bu esa yoshlarning o'z salohiyatini namoyon etishi, jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim omildir.

“Keyingi o'n yilda respublikada bir million nafardan ortiqroq professional ta'lim olgan, zamonaviy fikrlash salohiyatiga ega yangi avlod mutaxassislari tayyorlandi. Ular yuzdan ortiq yo'nalish, 265 ta mutaxassislik va 700 ta kasb bo'yicha ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatishning turli sohalarida mehnat qilish ko'nikmasiga ega”. Ammo masalaning boshqa jihati ham bor.

Ya'ni yosh mutaxassislar o'z ixtisosliklari bo'yicha hamma joyda ham ish topa olayaptilarmi? Barcha ixtisoslik yo'nalishlariga ham jamiyatda talab va ehtiyoj bormi? Bo'lajak mutaxassislarning sifat darajasi qanday? Darhaqiqat, bu kabi savollar bugungi kunda keng jamoatchilikni o'ylantirayotgan va javobini kutayotgan muammolardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda yoshlarimizning bilim va madaniy saviyasining yuqori darajaga ko'tarilishi, ularning o'qishga, izlanishga va o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish jarayonlarida faolliklarini qo'ldan bermay oshirishga ajratgan vaqt miqdorining ko'payishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizning ilg'or yoshlari faqat o'qish bilan chegaralanib qolmay, balki o'zlarining madaniy saviyalarini oshirishi, fan, san'at, badantarbiya va shu kabi ishlar, ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lsalar, shuningdek jamiyat va xalq manfaatlari yo'lida turli jmoat topshiriqlarini bajarsalar bular foydadan xali bo'lmaydi, albatta.

Jamiyat qurilishi va yoshlarning ma'naviy kamolotida har bir vaqtdan unumli foydalanish juda muhimdir. Ayniqsa, yoshlarning chuqur bilim egallashlari nuqtai nazaridan butun o'quv jarayonini rasional tashkil etish, faoliyatning hamma turlaridan ham vaqtni tejash, ularda vaqtdan

unumli foydalanishga nisbatan ko'nikmalar hosil qilishning yo'l va vositalarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bir so'z bilan aytganda, aziz yoshlar bugun sizlarga keng imkoniyatlar eshiklari ochilgan, siz bu eshiklar orasidan o'zingiz orzu qilganingizga kirib, u yerda o'z faoliyatingizni amalga oshiring va shuni bilib qo'yingki, bu yerda har bir daqiqa g'animat, shuning uchun siz lahzalardan unumli foydalanib qoling!

Endilikda Yoshlar yili Davlat Dasturini tayyorlash va hayotga tadbiq etish hamda amalga oshirish doirasida jalb qilinayotganligi, bu boradi davlatimiz rahbarining shaxsan o'zlari yoshlarinng manfaatlari va huquqlarni himoya qilish bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar, dolzarb vazifalar yoshlar tashkilotlarining, birinchi navbatda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faoliyat doirasini belgilab beradi. Joriy yil Davlat Dasturining eng muhim vazifalari qatorida yangi ish o'rinlarini yaratish va yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida bir qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

"Yozni "Kamolot" bilan" loyihasi doirasida uch ming nafardan ortiq yosh yigit-qizlar mavsumiy ish bilan ta'minlandi. Talaba-yoshlarning "Bunyodkor" mehnat otryadlarida 12.5 ming nafarga yaqin talaba-yoshlar mavsumiy ish bilan ta'minlandi. Talaba-yoshlar yirik qurilish obyektlaridan tortib davlat ishlarigacha ko'maklashishdi. "Bunyodkor" otryadlarida minglash yoshlar ilk bor mehnat nonining ta'mini tatib ko'rdilar.

Bulardan tashqari zamonaviy yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda mamlakatimiz miqyosida aynan yoshlar o'rtasida shtkaziladigan turli tanlovlarning ham o'z o'rni bor deb o'ylaymiz. Respublikamizda o'tkazilayotgan tanlovlar turlicha. Ular bugungi kun yoshlari hayotining barcha sohasini qamrab olgan desak hyech mubolag'a bo'lmaydi. Qolaversa, tanlovlar muayyan bir sohada o'sib kelayotgan yosh avlodning iqtidorini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

Mustaqillikdan so'nggi yaqin yilliklarda o'tkaziladigan tanlovlar yo'nalishi bir tomonlama bo'lib qolayotgandek edi, chamamizda. Shu bilan birga davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari tomonidan o'tkazilayotgan tanlovlar o'rtasidagi farq ham sezilarli darajada edi.

Masalan, ilmiy yo'nalishga yo'naltirilgan tanlovlar odatda davlat tashkilotlari tomonidan tashkil etilar, jamoat tashkilotlari esa e'tiborni ko'pincha san'at yoki sport sohasiga qaratar edi. So'nggi yillarda esa bu tafovut ancha-muncha o'zgardi. Bunda esa yana shu yetakchi tashkilot-"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati hamda "O'zbekiston san'ati va madaniyati forumi" jamg'armasi tomonidan o'tkazilayotgan "Kelajak ovozi" mega tanlovining ham hissasi katta.

"Kelajak ovozi" –bu haqiqiy yoshlar tanlovi. U chinakam bunyodkor tanlovdir. U yettita yo'nalishda ijod qiladigan, o'z faoliyatini olib boradigan yoshlarni bir joyga jamlashi bilan ham

boshqa tanlovlardan farqlanib turadi. Bu tanlovning boshqa tanlovlarga o'xshamaydigan jihatlari ko'p.

Ko'pgina tanlovlarda tashkilotchilar g'oliblarning keyingi taqdiri, faoliyati bilan qiziqishmaydi. Ulardan biron bir g'olib haqida ma'lumot so'rasangiz, aksariyat hollarda yelka qisib qo'yish bilan cheklanishadi. "Kelajak ovozi"da esa buning aksi. Ko'rik-tanlov to'rt yildan buyon davom etayotgan bo'lsa-da, sizga har bir g'olibning keyingi taqdiri, uning hayoti va faoliyatidagi keyingi o'zgarishlar haqida batafsil ma'lumot berishadi.

O'tgan yildan boshlab tanlov g'oliblari uchun o'z kasbining ustalari ishtirokida master-klasslar o'tkazida boshlandi. Bu esa yoshlarning mahoratini yanada oshirish, ularni bundanda yirikroq tanlovlar, yutuqlarga tayyorlashning bir qismi, xolos.

"Kelajak ovozi" ning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayonida bevosita yoshlar takliflari va tashabbuslarining hisobga olinishidir. Zero, tanlovning oldiga qo'ygan maqsadlardan biri ham bevosita yoshlarning tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ularning fikrini tinglashdan iborat. Shundan ekan bu borada tanlov tashkilotchilarining o'zlari tashabbus ko'rsatayotganligi, yoshlarga o'rnak bo'layotganligi tahsinga sazavor. Darvoqe, tashabbuslar, takliflar aytilgan joyda qolib ketmaydi.

Agar haqiqatan ham yaxshi takliflar bildirilsa, u albatta amalga oshiriladi. Masalan, o'tgan yilgi tanlov yo'nalishlari orasiga yangisi qo'shildi. Sportda turli yutuqlarga erishiyotgan yoshlar endi o'z omadlarini "Kelajak ovozi" tanlovida ham sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu yo'nalishning kiritilishida ham aynan yoshlar tomonidan bildirilgan takliflar muhim va yetakchi o'rin egalladi.

Shu yilda tanlov o'tkazilayotganiga endi uch yil to'lgan bo'lsa-da, yoshlar orasida uning nufuzi juda yuqori. Buning sabablari juda ko'p. Ba'zilarini esa biz yuqorida sanab o'tdik. Ammo ularning ichida yana bir omil borki, unga to'xtalmasdag ilojimiz yo'q.

Ko'pgina tanlovlarning har yili deyarli bir xil qolip, bir hil ko'rinishida o'tishiga e'tibor qaratamiz. To'g'ri, tanlovlarda an'anaviylik, o'ziga xosliyi bo'lishi yaxshi. Ammo bu faqat bir joyda turib qolish degani emas. "Kelajak ovozi"ning yutug'i esa yildan-yilga takomillashayotganidir.

Joriy yilning shu kunlarda "Kelajak ovozi" mukammallik sari intilmoqda. Bunga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Keling gaplarimiz quruq bo'lmasin, ba'zi bir faktlarga e'tibor qarataylik. Doimiy tarzda ishtirokchilarni baholash e'tirozlarga sabab bo'layotgan edi. Dastlabki ikki yilda ishtirokchilarning yoshi inobatga olinmagan, bu esa ba'zi bir nominasiyalarda ishtirok etgan yosh, ammo iqtidorli yoshlarning imkoniyatlarini cheklab qo'yishlari mumkin edi. Yildan-yilga esa bu bu holatga barham berildi.

Endilikda ishtirokchilar yoshiga ko'ra baholanadi. Ya'ni 15-19 yoshdagi ishtirokchilar

alohida, 20-25 yoshdagi ishtirokchilar alohida bo'lib g'oliblarni aniqlashadi. Shunga yarasha, viloyat va respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritadiganlar soni ham oshib bormoqda.

### 3. Aqliy taraqqiyotda bilish faoliyati

Bilish faoliyati masalalari taniqli psixolog va pedagog P.P.Blonskiyning ijodida atroflicha yoritib berilgan. P.P.Blonskiy ilk bor pedagogik-psixologiyada mantiqiy hukm turlarining shakllanishi (muammoli, oldindan ko'ra bilish) va xulosa chiqarish planida ta'lim oluvchining fikrlashini tahlil qilib berdi.

U bilish faoliyatini psixologik hodisalar – xotira, iroda, idrok bilan dialektik aloqadorlikda deb qaraydi va xotira nazariyasini shakllantirar ekan, xotiraning fikrlash va nutq bilan ichki aloqasini ochib beradi. P.Blonskiyning o'rganishga qiziqtirish asosida faollik va mustaqillikka undash, mustaqil faoliyat yuritish, ta'lim oluvchilarning bilish qobiliyatlarini o'stirishni tashkil etish to'g'risidagi g'oyalari samarali hisoblanadi.

**Bilish jarayonlari** – shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o'zini o'rab turgan atrof–muhitning ma'lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va ular ustida o'ziga zarur xulosalar chiqarib, o'z xulq–atvorini rejalashtirishga imkon beradi.

Bilish jarayonlariga avvalo bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisalar: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, xayollar kiradi.

Sezgi – ayni choqda sezgi a'zolariga ta'sir etuvchi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini (rang, temperatura, hid va shu kabilar) aks ettirishdan iborat bo'lgan psixikaning oddiy, elementar formasidir. Biroq narsa va hodisalarning ayrim sifat va xususiyatlarining aks ettirilishi har doim narsalar dunyosini aks ettirish bilan qo'shilib ketgan bo'ladi.

Idrok – bir butun, yaxlit narsa va hodisalarni hamda ularning qismlarini aks ettirishdan iboratdir. Idrok hamma vaqt sezgilar majmuiga tayanadi, lekin bilishning ancha yuqori bosqichi qisoblanadi (umuman yashil emas, balki rangidan tashqari bir qator belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan yam–yashil o't).

Xotira – o'tmish tajribada bo'lganlarni aks ettirish, boshqacha qilib aytganda biron narsani esga olish, esda saqlab turish va qayta esga tushirishdir. Bu miyada nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi, ularning saqlanishi, miyada qachonlardir biron marta sodir bo'lgan nerv jarayonlari va holatlarining qayta tiklash qobiliyati natijasida yuz beradi.

Narsa va hodisalar ichki mazmunining va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va munosabatlarning hamda taraqqiyot qonuniyatlarining, ya'ni bevosita sezgi a'zolari bilan sezib bo'lmaydigan, lekin muhim bo'lgan xususiyatlarining aks ettirilishiga tafakkur deb ataladi.

Tafakkur – faqatgina sezgilar, idroklar, xotiralar asosida, ya'ni hissiy tajriba orqali to'plangan bilimlar asosida bo'lishi mumkin. Tafakkur insonlarda bilimlarni, til vositasi asosida qayta ishlash jarayoni qisoblanadi. Shunday qilib, nutq insonlar o'rtasidagi asosiy va muhim aloqa vositasi bo'libgina holmay, shu bilan birga fikr yuritish formasi hamdir.

Bilimlarni aktiv ravishda qayta ishlash, shuningdek, xayol jarayonida ham amalga oshiriladi.

Xayol deb – o'zimiz bevosita idrok etmagan yangi fikr va obrazlarning hosil etilishiga aytiladi. Bu fikrlar ilgarigi tajribalarimiz asosida, ongimizdagi bilimlarni yangicha tartibda bir–biriga qo'shish orqali yoki xotira obrazlari va o'zlashtirilgan tushunchalarning elementlarini chatishtirish orqali hosil qilinadi.

Har qanday bilish jarayoni aktiv jarayon bo'lib qisoblanadi. Ongimizni ayni choqda boshqa narsalarga chalg'itmay biron narsaga mutassil qaratilishiga *diqqat* deb ataladi. Ko'pchilik hollarda diqqatga ham bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Bilish jarayonlarini bilishning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamizda, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz.

Masalan, do'stlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taasurol qoldira oladi, lekin uning u yoki bu hatti–harakatlarni bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilsakda, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalardan farq qiladi.

Chunki zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri–malakali bo'lajak mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofidaqilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb mutaxassisi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Bu o'rinda inson ruhiyati qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya fanining o'zni va roli benihoya kattadir.

Bilish jarayonlarini chuqurroq bilish, o'z umr bosqichlarini va har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Har bir inson faqat o'ziga xos individual bilish jarayoni, emotsional holati, iroda, xarakter, xulq–atvor xususiyatlariga egaligi bilan farqlanadi. Inson o'z shaxsining shaxs bo'lib shakllanishiga xos bo'lgan psixologik qonuniyatlarni va uning mexanizmlarini yaxshi bilsa, hayotda qoqilmaydi. Har bir bo'lajak muttaxassis, har bir fan o'quv predmeti metodikalarini balki, bugun komil insonni va barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi turgan bir paytda bilish jarayonlarini chuqur bilishi ham zarur bo'ladi.

Bilish jarayonlari ularning mazmun - mohiyati ilmiy dunyoqarashi bo'yicha bilimlarni

bergani bilan uning o'zlari o'tayotgan psixologiya fani mavzusini yanada chuqurroq o'rganishi uchun yetmish savolga–yetmish javoblar alloma va muttafakkirlarning fikrlari hayot va ijodlari talabalarni o'z ustida ishlashga yordam beradigan tayanch so'z va iboralar ham kiritilganligi psixologiyaning boshqa masalalarini ham mustaqil o'rganish va ruhiy hodisalarni taqlil etishga o'rganish xozirgi zamon psixologik bilimlarni egallashga va shaxs ilmiy dunyoqarashini shakllantirish muammolariga samarali yordam beradigan, bu jarayonlaridan kundalik turmush tajribalarida foydalanish talabalarga o'qituvchilik faoliyatida asosiy bilimlardan bo'lgan psixologik tushunchalarni egallashga, shaxsning psixologiyasini, uning faoliyati, muloqotini bilib olishga, psixologik taraqqiyotning qonuniyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

Ta'lim–tarbiya jarayonida shaxs bilan bog'liq bo'lmagan masala yo'q shaxsga xos bo'lgan ayrim psixik jarayonlar inson psixikasi, uning amaliy faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi, tarkib topadi va rivojlanadi. Bugun barkamol avlodning butun hayoti va faoliyati jarayonida uning psixikasini o'rganish va boshqarish psixologiyaning amaliy vazifasi hisoblanib, intellektual salohiyatli va ilmiy dunyoqarashini boyitib tarbiyalashga mustahkam asos bo'ladi.

Shuning uchun ham bilish jarayonlarini anglash orqali ta'lim tarbiya tizimini boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Ta'lim–tarbiya jarayonini ilmiy asosda boshqarish uchun esa, pedagog tabiat va jamiyatga nisbatan qarashlar tizimini shakllantirgan bo'lishi talab etiladi. Shundan kelib chiqqan holda bilish jarayonlari negizida shaxs dunyoqarashi tarkib topadi, – deb xulosa chiqarish uchun dunyoqarash tushunchasiga va uning mohiyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini jonlantirish uchun ularda quyidagilarni shakllantirish zarur:

- bilishga tayyorlik;
- bilish faoliyatining malaka va ko'nikmalari;
- bilish faoliyatiga ehtiyoj.

Ta'lim oluvchilarda bilish faoliyatiga bo'lgan barqaror ehtiyojni shakllantirish jarayoni bu faoliyatning psixologik dalillanishiga asoslanadi.

S.A.Rubinshteyn ta'kidlaydiki: "Fe'l-atvordagi barqarorlikka ega bo'lgan har bir intilish, bu bo'lg'usi xarakterning qirralaridan biridir. Xarakter esa birin-ketin inson xatti-harakatlarida namoyon bo'lib, unga singishib, shaxsiy hislatga aylanadigan intilishlar majmuidir".

Bilish faoliyatining faol qo'zg'atuvchilari quyidagilardir:

- konkret faoliyatga bevosita, faol qiziqish;
- axloqiy-estetik va ruhiy qoniqish (motivlari).

Bilish ehtiyojlari rivojlanishining bir necha bosqichlari ishlab chiqilgan:

- yelementar ilmiy-tadqiqot faoliyati yo'nalishi bosqichi va tashqi taassurotlarga

ehtiyojni shakllantirish;

- o`rab olgan olamni bilishga bo`lgan ehtiyojni shakllantirish bosqichi;
- bilish usulini egallash faoliyati sifatida mashq qilish ehtiyojini shakllantirish bosqichi;
- bilish ehtiyojlarini tanlashga yo`nalganligini shakllantirish bosqichi;
- mustaqil tahsilga bo`lgan ehtiyojni rivojlantirish bosqichi.

Bilish faoliyatini jonlantirish faqat bilimlarni o`zlashtirish jarayonini yaxshilashgagina emas, balki shaxsning eng muhim sifati bo`lgan faollik va mustaqillikning shakllanishiga ham yo`naltirilgan bo`lishi zarur.

Ta'lim oluvchilar o`quv yurtida o`qib turgan vaqtida bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashda barcha turdagi o`quv jarayoniga jalb qilinadilar. Bu davrda ular shaxsining asosiy qiyofalari shakllanadi. Faoliyatining bu shakllarida ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilliklari, hissiyotlari, motivlari, shuningdek, umumiy va xususiy qobiliyatlari paydo bo`ladi va rivojlanadi.

Olimlarning isbotlashlaricha, har qanday faoliyatning tarbiyaviy samaradorligi ko`proq uning tashkil etilish darajasiga bog`liq. Qachonki, yosh xususiyatlari faoliyat turlarining galma-galligi, me'yoriyligida amalga oshadi.

Bilish faoliyatini jonlantirishda qiziqish alohida ahamiyatga ega. O`rganishga bo`lgan qiziqishni olimlar ijobiy, hissiy bo`yoqqa ega bo`lgan, bilim, malaka va ko`nikmalarga bo`lgan alohida munosabat deb baholaydilar.

Bilishga bo`lgan qiziqish – o`qitishdagi o`ziga xos qiziqish turidir. Bilishga bo`lgan qiziqish insonning predmet va atrof-muhit hodisalariga bo`lgan murakkab munosabati va ularning muhim xususiyatlarini har tomonlama, chuqur o`rganish va bilishi, deb qaraladi. Bilishga bo`lgan qiziqish saralab olishga yo`naltirilgan va u shaxsning ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Bilishga bo`lgan qiziqishning belgilari quyidagilardir:

- intellektual xarakterda bo`lishi;
- ijodiy xarakterda bo`lishi.

Bilimga bo`lgan qiziqishning rivojlanish bosqichlari:

- qiziqsinish – mo`ljalning elementar darajasi - "mo`ljallangan qiziqish";
- qiziquvchanlik – bilishga bo`lgan yehtiros, quvonch bilan obekt chegarasiga kirib borish;
- bilishga bo`lgan qiziqish – hodisalarning mohiyatiga kirib borishga intilish, haqiqatni qidirish.
- nazariy qiziqish – voqelikka faol ta'sir etish orqali nazariy asoslar, qonuniyatlarni bilishga intilish.

Qiziqishning paydo bo'lishi va rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha sathlarga ajratish mumkin:

- yangi faktlarga, mashg'ulotlarda olinadigan axborotlarda gavydalanadigan mashg'ulotlarga bevosita qiziqish hamda har xil sharoitlarda harakat qiluvchi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini bilishga qiziqish;

- o'rganishga bo'lgan barqaror qiziqish. U ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda muhim xarakterga yega va unda bilishga bo'lgan qiziqish tashqi omillarga muhtoj hamda u real o'quv jarayoni shart-sharoiti va usullari bilan bog'liq bo'ladi.

Bilishga bo'lgan barqaror qiziqishga quyidagilar kiradi:

- intellektual faollik (ko'rsatkichlari – savol va javob mustaqilligi, jonli faoliyatga o'z tashabbusi bilan kirishishga intilish);

- malaka va ko'nikmalardan faolfoydalanish, ularning faol aks ta'siri (bilimlar yangi bilimlarni egallash metodlariga aylanadi, aksincha, bilishga bo'lgan qiziqish o'zining yeng yuqori rivojlanish darajasiga ko'tariladi);

- hissiyotni namoyish qilish (nafrat, quvonch, bezovta bo'lish, intellektual holatdagi hissiyot);

- irodani namoyish qilish – jiddiy diqqat qilish, kuchsiz chalg'ish, o'quv ishlarini tugallashga intilish;

- o'z xatti-harakatlarini erkin tanlash – o'quv mashg'ulotlaridan boshqa vaqtlarda u yoki bu mashg'ulotlarni yerkini tanlay olish.

Bilish faolligi individual bo'ladi, u shaxsning tug'ma qobiliyati yemas, balki uning xatti-harakatlari jarayonida shakllanadi.

Ta'lim oluvchilarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar:

- bilimga va o'quv maqsadlariga bo'lgan chuqur, har tomonlama qiziqish;
- aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish;
- diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to'plash.

Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 sath ajratiladi:

- reproduktiv faollik. Bunda "tayyor bilimlar" ni yegallashga tayyorlik, qizg'in qayta ishlash faoliyati kabilar amal qiladi;

- aplikativ faollik – unga qizg'in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;
- izohlashdagi faollik – ma'no-mazmunni qizg'in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyor;

- produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg'in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

#### 4. Ilmiy dunyoqarashning rivojlanishi – ta’lim-tarbiya va aqliy taraqqiyotning muhim omili sifatida

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi.

Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

**Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:**

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.

Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

**Ilmiy qarash** (yunoncha «*idea*»- g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan

hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi.

O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. **Ilmiy tafakkur** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

**E'tiqod** dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi.

Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi.

Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi. Chunonchi, «... ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi.

## UMUMIY XULOSALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yoshlar tarbiyasida aqliy taraqqiyot o'ta muhim muammodir, chunki aqlli odam o'rgangan bilimlari natijasida o'z hayoti faoliyatida nima qilish kerakligini biladi. Aqlli odam shunday odamki, u qiyin vaziyatdan osongina beshikast chiqib ketadi. Bu borada yoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirishda aqlli va dono odamni farqlashni ham o'rgatishimiz kerak.

2. Keyingi yillarda yoshlarimizning bilim va madaniy saviyasining yuqori darajaga ko'tarilishi, ularning o'qishga, izlanishga va o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish jarayonlarida faolliklarini qo'ldan bermay oshirishga ajratgan vaqt miqdorining ko'payishiga olib kelmoqda.

3. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

4. Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

5. Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

6. Bilish jarayonlarini bilishning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamizda, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz.

7. Umuman olganda, ta'lim-tarbiya inson aqliy kamolatini belgilovchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. U insoniyat paydo bo'lgandan boshlab komil insonlar va ota-onalar hayot-faoliyati ibrat-namunasi sifatida avolddan-avlodga o'tib kelmoqda va bu haqda boy tarixiy milliy merosga egaligimiz bugungi kunda hech kimga sir emas. Shu sababli ham tarbiya masalasi, ayniqsa aqliy tarbiya jamiyat taraqqiyoti turli bosqichlarida turlicha ko'rinish va yo'nalishlarda olib borilgan, chunki bular jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokchilarning dunyoqarashini va intellektual salohiyatini belgilab ham borgan. Bu borada bugungi mustaqil davlatimizning istiqboli taraqqiyotida barkamol avlod tarbiyasi o'ta muhimdir va ayniqsa yoshlarda mustaqillik ma'naviyatini shakllantirish har qachongidan ham dolzarb muammodir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
4. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 2010 yil 29 yanvar.
5. Karimov I.A. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi. –T.: O'zbekiston, 2010. 5-7-bet.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008. -176 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
8. Barkamol avlod orzusi. `Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov R.Ahliddinov. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1999. .
9. Ziyomammedov B. Ma'rifat asoslari. – Toshkent, Chinor ENK, 1998.
10. Mavlonova R. Va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O'qituvchi, 2001.
11. Ochilov M, Ochilova M. O'qituvchi odobi. – Toshkent, O'qituvchi, 1998.
12. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., 1997.
13. Подласый I.P. Pedagogika. Новый курс. V 2 kn. Kn. 1. – Moskva, Vados, 1999.
14. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X.To'xtaxo'jaeva tahriri ostida. – T.: Moliya-iqtisod, 2008.
15. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X.To'xtaxo'jaeva tahriri ostida. – T.: Moliya-iqtisod, 2008.
16. Pedagogika /O'quv qo'llanma. Munavvarov A. tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1996.
17. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X.To'xtaxo'jaeva tahriri ostida. – T.: Moliya-iqtisod, 2008.
18. Pedagogika (A.Munavvarovanning umumiy tahriri ostida). – Toshkent, O'qituvchi, 1996.
19. Pedagogika // M.X.To'xtaxo'jaeva tahriri ostida. – T.: Moliya-iqtisod, 2008.
20. G'oziev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). \_T.: O'qituvchi, 1994.
21. Internet ma'lumotlari. ZIYONET, PEDAGOG.UZ, KUTUBXONA.UZ saytlari.